

ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQUVCHI MAJBURIYATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNI BAJARISH TARTIBI

Haydarova Xurshidabonu Abror qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
xhaydarova1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zarar tushunchasi, zarar yetkazishdan kelib chiquvchi majburiyatlar tushunchasi, ularning vujudga kelish holatlari, majburiyatdan kelib chiquvchi javobgarlikning ahamiyati, javobgarlik uchun asosiy shartlar, huquqqa xiloflik, davlat organlari tomonidan yetkazilgan zarar va uning oqibati, chet davlatlar fuqarolik qonunchiligi keng qamrovda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: zarar, zarar yetkazishdan kelib chiquvchi majburiyatlar, zarar uchun javobgarlik, jabrlanuvchi, javobgar, huquqqa xiloflik, ayb, sababiy bog'lanish.

ПОНЯТИЕ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ, ВОЗНИКАЮЩИХ ИЗ-ЗА УЩЕРБА, И ПОРЯДОК ИХ ИСПОЛНЕНИЯ.

Хайдарова Хуршидабону Абборовна.
Студент Ташкентского государственного юридического университета
xhaydarova1@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены понятие вреда, понятие обязательств, возникающих из-за вреда, обстоятельства их возникновения, значение ответственности, вытекающей из обязательства, основные условия ответственности, противоправность, вред, причиненный государственными органами, и его последствия, сесторонне проанализировано гражданское законодательство зарубежных стран.

Ключевые слова: вред, обязательства, вытекающие из вреда, ответственность за вред, потерпевший, ответственный, противоправное деяние, вина, причинная связь.

THE CONCEPT OF OBLIGATIONS ARISING FROM DAMAGE AND THE PROCEDURE FOR THEIR PERFORMANCE

Haydarova Xurshidabonu Abror qizi
Student in Tashkent State University of Law
xhaydarova1@gmail.com

Abstract: *In this article, the concept of damage, the concept of obligations arising from damage, the circumstances of their occurrence, the importance of responsibility arising from obligation, the main conditions for liability, illegality, damage caused by state bodies and its consequences, the civil legislation of foreign countries are comprehensively analyzed.*

Key words: *damage, obligations arising from damage, liability for damage, victim, responsible, wrongful act, guilt, causal connection.*

Kirish

Ma'lumki, zarar g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik tufayli yetkazilishi mumkin. Zarar deganda huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi (Fuqarolik kodeksi 14-modda). Zarar asosan shaxsning o'ziga, mol-mulkiga, shuningdek huquqlariga ham yetkazilishi mumkin. Zarar yetkazishdan kelib chiquvchi majburiyatlar fuqarolik huquqining institutlaridan biri sanaladi. Kishilar doimiy bir-birlari bilan o'zaro munosabatga kirishishadi hamda shu munosabatlar ichida bir-birlariga moddiy yoki nomoddiy zarar yetkazishlari mumkin. Zararlar ba'zan tasodiflardan, ba'zan ehtiyotsizlikdan, ba'zan qasddan kelib chiqishi mumkin. Bugungi kunda yuridik hamda jismoniy shaxslar kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni sug'urtalash orqali zararining oldini olishni maqsad qilishgan. "Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning roli va ahamiyatini aniqlashda quyidagi ikki asosiy an'anaga e'tibor berish kerak,- deydi A.A. Kostin va A.I. Yafayevlar,-birinchidan, ishlab chiqarishning o'sishi natijasida ilgari noma'lum bo'lgan zararli omillar vujudga kelishi va tarqalishi, energiyaning yangi turlari (elektr va atom energiyasi)dan foydalanish, "zararli" tarmoqlarning tez o'sib borishi, barcha turdagi transport vositalarining rivojlanib borishi, mexanizatsiyaning keng qo'llanishi va boshqalarga... Keyingi davrda atrof-muhitni ifloslantirishdan, ishlab chiqaruvchining sifatsiz va zararli mahsulotni yetkazib berishi, shifokorlarning noto'g'ri da'volash ishlarini

olib borishlari natijasida kelib chiqqan da'volar soni ortib bormoqda. Masalan: Angliya Yuqori sudi tomonidan ko'rilayotgan da'voli ishlarning 70-80% ini zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar tashkil qilmoqda. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning ahamiyati ortib borayotganini davlatlarning fuqarolik qonunchiligida delikt majburiyatlarga katta e'tibor berilayotganida ham ko'rish mumkin. Masalan, agar Napoleon kodeksiga zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar uchun bor-yo'g'i 5 ta qisqa modda kiritilgan bo'lsa, Germaniya Fuqarolik tuzuklarida bu institutga 31 ta paragraf bag'ishlangan... Yuqoridagilar zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni tartibga soluvchi qonunchilik doirasining kengayishi an'anasi mavjudligidan dalolat beradi⁵³.

Shuningdek, Y. K. Tolstoy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'ziga xos belgilarini quyidagicha ko'rsatadi:

- a) bu majburiyatlarning ta'sir doirasi zararni qoplash moddiy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni qamrab oladi;
- b) ular mutlaq xarakterga ega bo'lgan mulkiy huquqlar (mulk huquqi, umrbod egalik qilish huquqi, xo'jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi va boshqalar) yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlarning buzilishi natijasida kelib chiqadi;
- c) garchi huquq jabrlanuvchi bilan shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan shaxs tomonidan buzilgan bo'lsa-da, majburiyatlar mutlaq huquqlar buzilganligi tufayli shartnomasiz xarakterga ega bo'ladi;
- d) bu majburiyatlar zarar kim tomonidan kimga yetkazilgani, zarar qay ko'rinishda yetkazilgani va zararni qoplash usullaridan qat'iy nazar, to'liq qoplanishini nazarda tutadi;
- e) qonunda nazarda tutilgan hollarda zararni to'lash majburiyati boshqa shaxslarga ham yuklatilishi mumkin.

Demak, yuqoridagi munosabat subyektlari bo'lib zarar yetkazgan shaxs va zarar yetkazilgan shaxs hisoblanadi. Subyekt sifatida jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham ishtirok etishi mumkin. Bunday munosabatlarda zarar yetkazilgan shaxs kreditor sifatida, zarar yetkazgan shaxs esa qarzdor sifatida harakatni amalga oshiradi. Quyidagi munosabatlarda bir tomonda huquq, ikkinchi tomonda esa majburiyat bo'ladi. Ya'ni, jabrlangan shaxsda buzilgan huquqlari tiklanishini yoxud unga yetkazilgan zarar to'lanishini talab qilish huquqi hamda javobgarda esa jabrlangan shaxsning talablarini qondirish majburiyati yuzaga keladi.

⁵³ Костин А. А. Яфаев А. И. "Обязательства из причинения вреда". Гражданское торговое право капиталистических государств. "Международные отношения". 1993 йил, 427-бет.

Adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, zarar yetkazishdan kelib chiquvchi javobgarlik uchun quyidagi majburiy shartlar bo'lishi kerak:

- ✓ zarar;
- ✓ ayb;
- ✓ huquqqa xiloflik;
- ✓ zarar va ayb o'rtasidagi sababiy bog'lanish.

Yuqorida keltirilgan shartlarning hammasiga to'g'ri kelsagina zarar yetkazganlik uchun javobgarga majburiyat yuklashimiz mumkin. Fuqarolik huquqining zarar to'g'risidagi umumiy qoidasi quyidagicha: "Yetkazilgan barcha zarar to'liq hajmda qoplanishi kerak". Zararni ba'zan to'liq hajmda qoplash imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Masalan, yuridik shaxs xodimi mehnat vazifalarini bajarayotib baxtsiz hodisa sababli vafot etdi. Yuridik shaxs vafot etgan shaxsning o'rnini zararni to'lash bilan qoplashi mumkin. Ammo ma'naviy zararchi? Vafot etgan shaxsning hayoti, uning oila a'zolarichi? Ma'lumki, hech narsa inson hayotichalik qadrli emas! Shu holatda zarar qisman qoplanishi mumkin, ammo to'liq emas.

Shuningdek, davlat hokimiyati organlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning o'ziga xos holatlari sifatida fuqaroga quyidagi holatlarda zarar yetkazish ko'rsatib o'tiladi:

- qonunga xilof tarzda hukm qilish;
- qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish;
- ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat olishning qonunga xilof qo'llanilishi;
- qamoq tariqasidagi ma'muriy jazoni qonunga xilof tarzda tayinlash⁵⁴.

Yuqoridagi sanab o'tilgan holatlarda zarar yetkazilgan shaxsning shaxsiy huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari huquqqa xilof ravishda cheklanmoqda. Masalani faqat bir tarafdin ko'rish ham noto'g'ri. Masalan, tergovchi muayyan bir jinoyatni tergov qilish jarayonida gumondor sifatida bir necha shaxslar bilan ishlaydi hamda ularning qochib ketmasligi yoki yashirinmasligi uchun qamoq tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga majbur bo'ladi. Ammo aybgor bo'lmagan shaxsning erkinlik, mehnat qilish huquqi cheklanib qolmoqdaku degan savol tug'ilishi tabiiy. To'g'ri, qamoqqa olingan shaxs yurist bo'lsa va qamoqqa olingan kuni yuz millionlik shartnomani vakil sifatida tuzmoqchi bo'lsa va qamoqdaligi sababli tuza olmasa, unga moddiy tomondan yetkazilgan zarar to'la hajmda to'lab berilishi kerak. Shu vaziyatda davlat nomidan ish yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuratura organlari va sudning olib borayotgan ishi yuzasidan yetkazilgan zarar uchun davlat javobgar bo'ladi. Ya'ni zarar davlat byudjetidan qoplanishi lozim. Agarda

⁵⁴ Fuqarolik huquqi: II qism [Matn]:darslik/ O.Oqyulov va boshqalar. -Toshkent: TDYU, 2023.- 608-bet;

zarar surishtiruvchi, tergovchi, prokuratura organlari va sudning bevosita o‘z xizmat vazifalarini suiiste‘mol qilgan holda yetkazilgan bo‘lsa, zarar uni yetkazgan shaxs tomonidan qoplanishi kerak.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, zarar aybsiz holda yetkazilishi (Fuqarolik kodeksi 985-modda) yoxud jabrlanuvchining e’tiborsizligi natijasida ham yetkazilishi mumkin. Masalan, derazadagi gultuvak shamol ta’sirida pastga tushib ketdi va deraza tagidagi mashinaga zarar yetkazdi. Shu vaziyatda agarda zarar hech kim tomonidan yetkazilmaganligini isbotlab bera olsa, zarar qoplanmasligi mumkin. Isbot qila olmasa, deraza va gultuvakning mulkdori tomonidan zarar to‘lanishi mumkin.

Agar zarar jabrlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan yetkazilgan bo‘lsa, zarar yetkazgan shaxsning harakatlari esa jamiyatning axoqiy tamoyillarini buzmasa, zararni to‘lash rad etilishi mumkin (Fuqarolik kodeksi 985-modda). Masalan, sport musobaqalarida har ikki taraf ham bir-biriga bir muncha bo‘lsa ham zarar yetkazadi va bu yetkazilgan zarar hech kim tomonidan qoplanmaydi. Sababi har ikki tomon ham zarar yetishini bilib musobaqaga kirishadi. Zararni undirish tartibi moddiy-huquqiy hamda protsessual-huquqiy normalar asosida amalga oshiriladi.

Fransiya bilan qiyosiy tahlil:

Insonning har qanday xatti-harakati boshqa shaxsga zarar yetkazishidan qat’i nazar, kimning aybi bilan sodir bo‘lgan bo‘lsa, uni to‘lashga yoki boshqacha tarzda qoplashga majbur. Biz nafaqat o‘z xatti-harakatlarimiz, balki o‘zimizning beparvoligimiz yoki ehtiyotsizligimiz tufayli yetkazilgan zarar uchun ham javobgarmiz. Shuningdek, o‘zimiz javobgar bo‘lgan shaxslarning xatti-harakatlari yoki bizda bo‘lgan narsalar tufayli yetkazilgan zarar uchun ham javobgarmiz. Shunga qaramay, qanday asosda bo‘lishidan qat’i nazar, yong‘in sodir bo‘lgan ko‘chmas yoki ko‘char narsalarning to‘liq yoki bir qismiga ega bo‘lgan shaxs, agar yong‘in sodir bo‘lishi kerakligi isbotlanmagan bo‘lsa, uchinchi shaxslar oldida ushbu yong‘in natijasida etkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lmaydi. Uning aybi yoki o‘zi javobgar bo‘lgan shaxslarning aybi bilan bog‘liq. Ushbu qoida Fuqarolik Kodeksining 1733 va 1734-moddalari bilan tartibga solinadigan mulkdorlar va ijarachilar o‘rtasidagi munosabatlarga taalluqli emas. Ota va ona ota-onalik vakolatlarini amalga oshirgan holda, ular bilan birga yashaydigan voyaga yetmagan bolalari tomonidan yetkazilgan zarar uchun birgalikda javobgar bo‘ladilar. Hayvonning egasi yoki undan foydalanayotgan shaxs uni ishlatish vaqtida hayvon yetkazgan zarar uchun yoki hayvon o‘z qaramog‘ida bo‘lganligi yoki hayvonning adashib qolishi yoki qochib ketishi uchun javobgar bo‘ladi. Binoning egasi, agar uni saqlab turmaslik yoki qurilishdagi nuqsonlar tufayli kelib chiqqan bo‘lsa, uning buzilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar

bo‘ladi⁵⁵. O‘zbekiston fuqarolik huquqi Fransiya fuqarolik qonunchiligi bilan o‘xshashligi tabiiy. Har ikkisi ham roman-german huquq oilasiga qarashli huquq tizimidan kelib chiqqan hisoblanadi. Har ikki qonunchilikda ham umumiy qoida ustuvor. O‘zbekiston qonunchiligida o‘ziga qarashli hayvonning yo‘qolib qolishi uchun javobgarlik belgilanmagan. Shu tarafdin farqli jihatlar mavjud.

Germaniya bilan qiyosiy tahlil

Boshqa shaxsning hayotiga, a‘zolariga, sog‘lig‘iga, erkinligiga, mol-mulkiga yoki boshqa huquqlariga qasddan yoki ehtiyotsizlikdan qonunga xilof ravishda shikast yetkazgan shaxs boshqa tomonga yetkazilgan zararni qoplashga majburdir. Xuddi shu majburiyat boshqa shaxsni himoya qilishga qaratilgan qonunni buzgan shaxsga ham yuklanadi. Agar nizom mazmuniga ko‘ra, uni aybsiz ham buzish mumkin bo‘lsa, kompensatsiya uchun javobgarlik faqat aybdorlik holatida mavjud bo‘ladi. Umumiy odob-axloqni buzgan holda boshqa shaxsga qasddan zarar yetkazgan shaxs boshqa shaxs oldida yetkazilgan zararni qoplashga majburdir. Ayyorlik, majburlash yoki qaramlik munosabatlarini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan boshqa shaxsni jinsiy xatti-harakatlarga yoki unga rozi bo‘lishga undagan shaxs yetkazilgan zararni qoplashi shart (Germaniya fuqarolik kodeksi 825-modda). Bizni fuqarolik qonunchiligimizda bu to‘g‘risida biror bir norma mavjud emas, jinoyat huquqi bundan mustasno. Shuningdek, vazifani bajarish uchun boshqa shaxsni jalb qilgan shaxs, ikkinchi shaxs topshiriqni bajarishda uchinchi shaxsga noqonuniy yetkazilgan zararni qoplashga majburdir. Agar direktor ishga yuborilgan shaxsni tanlashda tadbirkorlik faoliyatida zarur bo‘lgan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lsa va ular qurilmalar yoki asbob-uskunalarini sotib olish yoki tadbirkorlik faoliyatini boshqarish uchun bunday xarid yoki boshqaruvda e‘tiborli bo‘lsa, zararni qoplash uchun javobgarlik qo‘llanilmaydi⁵⁶. O‘zbekiston fuqarolik kodeksida agentlar tomonidan yetkazilgan zarardan kelib chiquvchi majburiyatlar uchun alohida norma mavjud emas.

Shvetsariya bilan qiyosiy tahlil.

Shvetsariyaning Majburiyatlar haqidagi kodeksiga ko‘ra, zararni qoplash yoki qoplashni talab qilish huquqi zarar ko‘rgan shaxs yo‘qotish, zarar yoki shikastlanish va buning uchun javobgar shaxsning shaxsi haqida ma‘lum bo‘lgan kundan boshlab uch yilni belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi ham da‘vo muddatini uch yil qilib belgilab qo‘ygan. Agar huquqbuzarlik tufayli zarar ko‘rgan shaxsga nisbatan da‘vo qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, u o‘z da‘vosi muddati o‘tib ketgan taqdirda ham da‘voni qondirishdan bosh tortishi mumkin⁵⁷.

⁵⁵ France Civil Code <https://wipolex.wipo.int/en/text/450530>

⁵⁶ German Civil Code https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html#p4209

⁵⁷ https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/27/317_321_377/en#art_42

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, zarar yetkazishdan kelib chiquvchi majburiyatlar institutining “Bosh delikt tamoyili”, ya’ni yetkazilgan barcha zarar to’la hajmda qoplanishi kerak tamoyili barcha vaziyatlarda birdek ishlamoq’i lozim. Masalan, zararni kim yetkazishidan qat’iy nazar to’lanishi kerak. Xoh u davlat bo’lsin, xoh tashkilot. Aybi bo’lmagan tarzda yetkazailgan zararlar isbotlash prinsipi asosida ishlaydi. Agarda aybsizligini isbot qila olsa, o’z-o’zidan hech qanday javobgarlik kelib chiqmaydi. Bordi-yu aybi yo’qligini isbot qila olmasa, demak zarar uchun javobgar bo’ladi. Fransiya, Germaniya hamda O‘zbekiston roman-german huquq oilasiga kirganligi sababli fuqarolik huquqidagi zarardan kelib chiquvchi majburiyatlari bir-biriga o‘xshash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Fuqarolik huquqi: II qism [Matn]:darslik/ O.Oqyulov va boshqalar. -Toshkent: TDYU, 2023.- 896 bet;*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi*
3. *Костин А. А. Яфаев А. И. "Обязательства из причинения вреда". Гражданское торговое право капиталистических государств. "Международные отношения". 1993 йил, 427-бет.*
4. *France Civil Code* <https://wipo.lex.wipo.int/en/text/450530>
5. *German Civil Code* https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html#p4209
6. https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/27/317_321_377/en#art_42